

BOSHQARUV HISOBİ MAQSADLARIDA HISOB SIYOSATI

Nurniyozov Feruz Abdurashid o'g'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Buxgalteriya hisobi" kafedrası assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshqaruv hisobi tizimida hisob siyosatining tutgan o'rni, uning mazmuni va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishda boshqaruv hisobi axborotlarining ishonchliligi va tahliliy ahamiyati muhim omil sifatida qaraladi. Tadqiqot jarayonida hisob siyosatining boshqaruv hisobi bilan o'zaro bog'liqligi, xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish, mahsulot tannarxini aniqlash, byudjetlashtirish va ichki nazoratni kuchaytirishdagi roli yoritib berilgan. Shuningdek, hisob siyosatini shakllantirishda korxonaning faoliyat xususiyatlari, ishlab chiqarish texnologiyasi va boshqaruv tuzilmasini inobatga olish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari boshqaruv hisobi maqsadlariga yo'naltirilgan hisob siyosati korxona boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: boshqaruv hisobi, hisob siyosati, xarajatlar hisobi, tannarxni kalkulyatsiya qilish, byudjetlashtirish, ichki nazorat, boshqaruv qarorlari, moliyaviy axborot, javobgarlik markazlari, korxona samaradorligi

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligi, avvalo, to'g'ri va o'z vaqtida qabul qilinadigan boshqaruv qarorlariga bevosita bog'liqdir. Bunday qarorlarni asoslashda boshqaruv hisobi muhim axborot manbai sifatida maydonga chiqadi. Boshqaruv hisobi tizimining samarali ishlashi esa, o'z navbatida, korxonada ishlab chiqilgan hisob siyosatining mazmuni, yo'nalishi va moslashuvchanligiga chambarchas bog'liq. Hisob siyosati nafaqat moliyaviy hisobot tuzish uchun, balki ichki boshqaruv ehtiyojlarini qondirish, xarajatlarni nazorat qilish va strategik rejalashtirish jarayonlarini ta'minlash uchun ham xizmat qiladi. Shu bois, hisob siyosatini boshqaruv hisobi maqsadlariga mos ravishda shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

"Bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet tashkilotlarda buxgalteriya hisob siyosatini to'g'ri tashkil qilish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Korxona va tashkilotlarda buxgalteriya hisobi sodir bo'layotgan xo'jalik jarayoni hamda muommolarini kuzatib va qayd etib qolmasdan, ishlab chiqarish rejasining bajarilishi ustidan tekshiruvni amalga oshira borib, rejalashtirish, nazorat qilish va iqtisodiyotni

boshqarish ishida asosiy funksiyani bajaradi”¹. Shu boisdan ham, hisob ishlarini tashkil qilish masalalariga katta e’tibor qaratiladi. Hozirgi kunda buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil qilishga qo’yilgan eng asosiy talab bu - uning kam xarajatli va sodda bo’lishidir. Korxonada hisob ishlari ana shunday tashkil etilgandagina, buxgalteriya hisobi yuqori samaraga hamda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Buning uchun eng avvalo, har bir korxonaning o’ziga xos tarmoq xususiyatlarini va boshqa jihatlarini chuqur o’rganish lozim.

Adabiyotlar sharhi.

Boshqaruv hisobi maqsadlarini aniqlaah va hisob siyosatini yuritishga oid ko’plab adabiyotlar o’rganildi. Xususan, B.A.Hasanov va A.A.Xashimovlatning “Boshqaruv hisobi”² nomli darsligi xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, ishlab chiqarish zararsizligining tahlili, byudjetlashtirish, segmentlar bo’yicha hisob va hisobot kabi boshqaruv hisobining zamonaviy yo’nalishlariga bag’ishlangan. Shuningdek, rivojlangan davlatlarda qo’llanilayotgan va BMT tomonidan tavsiya etilgan boshqaruv hisobi tamoyillari hamda tashkiliy asoslaridan keng foydalanilgan. “Boshqaruv hisobining asosiy maqsadi esa korxona rahbariyatini oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun xarajatlar va moliyaviy natijalar to’g’risidagi ishonchli axborotlar bilan ta’minlashdir. Hisob siyosatini ishlab chiqish. Moliyaviy hisobda hisob siyosati uni yuritish qoidalari, moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim qilishtartibini ifodalaydi. Boshqaruv hisobi hisob siyosatida asosan korxona faoliyatini byudjetlashtirish, taxminlash, tannarxni hisoblash, transfert bahoni shakllantirish, segmentar hisobot tuzish masalalari o’z ifodasini topadi”³ Biroq, “...hisob siyosati deganda xo’jalik yurituvchi subyektning rahbari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish uchun qo’llaydigan usullari, ularning prinsip va asoslari bilan birgalikdagi jamlamasi tushuniladi”⁴.

“Bozor iqtisodiyoti buxgalteriya hisobi faqat hisob yuritish siyosati va statistika vazifasini bajarib qolmasdan, balki manfaatdor tomonlarga rahbari, tashqi investorlar va foydalanuvchilarga asosan moliyaviy axborotga asoslanadigan samarali axborot tizimi zarurligi natijasida kelib chiqadi. Tahlil korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini yaxshilash maqsadida qaror qabul qilish uchun ilgari qabul qilingan strategiya va taktikasini baholash hamda tahlil qilish jarayonidir. Tahlil natijasida korxonada boy berilgan imkoniyatlar hisoblab chiqiladi, mavjud rezervlar hajmi belgilanadi,

¹ Vahobov A., Ibragimov A., Ishonqulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. T.: "Sharq" NMAK, 2005-y. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Page 556

² B.A.Hasanov va A.A.Xashimovlatning “Boshqaruv hisobi” nomli darslik Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. -260 b. https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_005f76c62d913b5.pdf

³ B.A.Hasanov va A.A.Xashimovlatning “Boshqaruv hisobi” nomli darslik Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. -260 b. 15-bet. https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_005f76c62d913b5.pdf

⁴ “TASDIQLANGAN” O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirining o’rinbosari E.F. GADOYEV 26.07.1998-y. 17-17/86-son O’zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti 1-sonli BHMS Hisob siyosati va moliyaviy hisobot [O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 14-avgustda 474-son bilan davlat ro’yxatidan o’tkazilgan] <https://lex.uz/mact/-828581#-3745501>

uskunalar, mehnat va xomashyo resurslaridan foydalanish darajasi oshadi, shuningdek, moddiy resurslar bilan uzluksiz ta'minlash yo'lga qo'yiladi"⁵.

Tahlil natijalari.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlangan sari xo'jalik yurituvchi barcha sub'ektlarda, ularning faoliyat turi va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish, shuningdek uni yanada takomillashtirishga talab oshib bormoqda. Shu bilan birgalikda qayd etish joizki, ayni paytda korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish amaliyoti, korxonalar rahbarlarining barcha talablariga ham javob bera olmaydi. Buning bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablari mavjud. Ular nafaqat boshqaruv hisobini amaliy joriy etish masalalari bilan, balkim uni tashkil etish va yuritishning nazariy va metodologik masalalari va muammolari bilan ham bog'liq. Xususan, shu borada olimlar o'rtasida boshqaruv hisobining funksiyalari, ob'ekti va predmeti, metodi hamda tamoyillari borasida ham turli xil qarashlar va munozaralar mavjud. Korxonalar boshqaruv hisobining vujudga kelishi xarajatlar hisobini tashkil etish va yuritish bazasida yuzaga kelgan, shuning uchun uning asosiy tarkibiy qismini turli yo'nalishlardagi kelgusi va o'tgan davrlar uchun ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil etadi. Yana bir muhim holat – bu boshqaruv hisobining bevosita ma'lumotlarning atroflicha tahlilini tashkil etishi bilan bog'liq bo'lib, u nafaqat nazariyachi olimlar, shuningdek amaliyotchilar tomonidan ham boshqaruv hisobi mohiyatini aniqlashda e'tirof etiladi. Boshqaruv hisobi tarkibida ma'lumotlar yig'iladi, guruhlanadi, identifikatsiya qilinadi, tarkibiy bo'linmalar faoliyatini natijalarini to'liq aks ettirish hamda korxonaning foyda olishda qatnashish darajasini aniqlash maqsadlarida o'rganiladi. Hisob siyosatida ishlab chiqarish faoliyatisamaradorligi amaldagi va rejadagi xarajatlarni hamda ishlab chiqarish xarajatlarini taqqoslash jarayoni sifatida keltirib o'tiladi.

1-jadval.

Boshqaruv hisobi maqsadlari va ularning mazmuni⁶

Boshqaruv hisobi maqsadlari	Mazmuni va asoslari
Boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlash	Boshqaruv hisobi korxona rahbariyatini strategik va operativ qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ishonchli, o'z vaqtida va tahliliy axborot bilan ta'minlaydi. Ushbu maqsadning asosini daromadlar, xarajatlar, foyda va rentabellik ko'rsatkichlarini aniqlash tashkil etadi. Hisob siyosati doirasida axborotlarni

⁵ Abdullojon Davronov Korxona va tashkilotlarda hisob siyosatini shakllantirish Журнал Scientific progress 2021 <https://cyberleninka.ru/article/n/korxona-va-tashkilotlarda-hisob-siyosatini-shakllantirish>


⁶ Mavzuga oid adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi

	shakllantirish usullarining tanlanishi boshqaruv qarorlarining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.
Xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish	Xarajatlarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish boshqaruv hisobi tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Mazkur maqsad xarajatlarni tasniflash, me'yorlash va tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Hisob siyosatida xarajatlarning doimiy va o'zgaruvchan turlarga ajratilishi, javobgarlik markazlari bo'yicha hisob yuritilishi ushbu maqsadning metodologik asosi hisoblanadi.
Mahsulot (ish, xizmat) tannarxini aniqlash	Mahsulot tannarxini to'g'ri aniqlash narx belgilash va foydani rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv hisobi tannarxni hisoblashning buyurtma, jarayonli yoki faoliyatga asoslangan usullarini qo'llash orqali aniq va tahliliy ma'lumotlar shakllantiradi. Hisob siyosatida tanlangan tannarx hisoblash usuli ushbu maqsadning amaliy asosini tashkil etadi.
Faoliyat samaradorligini baholash	Boshqaruv hisobi bo'limlar, markazlar va butun korxona faoliyatining samaradorligini baholash imkonini beradi. Mazkur maqsad moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi. Hisob siyosatida javobgarlik markazlari, foyda va xarajat markazlarini belgilash samaradorlikni baholashning asosiy omili hisoblanadi.
Byudjetlashtirish va prognozlash	Byudjetlashtirish boshqaruv hisobi orqali korxonaning kelgusidagi moliyaviy holatini oldindan rejalashtirishga xizmat qiladi. Mazkur maqsad daromad va xarajatlarni byudjetlari, pul oqimlari prognozlarini tuzishga asoslanadi. Hisob siyosatida byudjetlashtirish tartibining belgilanishi boshqaruv hisobi tizimining uzluksizligini ta'minlaydi.
Ichki nazoratni kuchaytirish	Ichki nazorat boshqaruv hisobi orqali xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini ta'minlashga qaratiladi. Ushbu maqsadning asosi sifatida hujjatlashtirish, ichki hisobotlar va tahliliy ko'rsatkichlar xizmat qiladi. Hisob siyosatida ichki nazorat mexanizmlarining belgilanishi resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, boshqaruv hisobi maqsadlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular korxona faoliyatining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Eng muhim jihat shundaki, boshqaruv hisobi nafaqat faktik natijalarni aks ettiradi, balki kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash uchun ham xizmat qiladi. Jadvalda

keltirilgan maqsadlarning aksariyati hisob siyosatida tanlangan metod va usullar bilan bevosita bog‘langan. Xususan, xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish hamda tannarxni aniqlash maqsadlari hisob siyosatida xarajatlar tasnifi va hisoblash usullarini to‘g‘ri tanlashni talab etadi. Agar ushbu jihatlar e‘tibordan chetda qolsa, boshqaruv qarorlarining aniqligi va samaradorligi pasayadi. Shuningdek, byudjetlashtirish va samaradorlikni baholash boshqaruv hisobi tizimini strategik boshqaruv vositasiga aylantiradi. Umuman olganda, jadvalda keltirilgan boshqaruv hisobi maqsadlari korxona ichki boshqaruv tizimining axborot asosini mustahkamlab, hisob siyosatini faqat rasmiy hujjat emas, balki samarali boshqaruv instrumenti sifatida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Hisob siyosati — bu korxona tomonidan tanlab olingan buxgalteriya hisobi usullari, tamoyillari va qoidalarining majmui bo‘lib, u xo‘jalik operatsiyalarini aks ettirish va moliyaviy natijalarni aniqlashda asos bo‘lib xizmat qiladi. An‘anaviy yondashuvda hisob siyosati ko‘proq moliyaviy hisobot talablariga yo‘naltirilgan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda uning boshqaruv hisobi bilan integratsiyasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.



1-rasm. Hisob siyosatining asosiy prinsiplari⁷

Boshqaruv hisobi maqsadlarida hisob siyosati, avvalo, ichki foydalanuvchilar — menejerlar, bo‘lim rahbarlari va strategik qaror qabul qiluvchi shaxslar ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi. Bu jarayonda xarajatlarni tasniflash, mahsulot tannarxini hisoblash usullarini tanlash, markazlashtirilgan yoki markazlashtirilmagan hisob yuritish kabi masalalar muhim o‘rin tutadi. Masalan, xarajatlarni o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarga ajratish boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ayniqsa “zararsizlik nuqtasi”ni aniqlash va rentabellikni baholashda muhim ahamiyatga ega.

⁷ Byudjet tashkilotlari uchun hisob siyosati Norma.uz

https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/byudjet_tashkilotlari_uchun_hisob_siyosati

Hisob siyosatida tannarxni hisoblashning buyurtma usuli, jarayonli usul yoki faoliyatga asoslangan hisob (ABC costing) kabi usullardan qaysi biri tanlanishi ham boshqaruv hisobi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Faoliyatga asoslangan hisob usuli resurslardan foydalanish samaradorligini chuqur tahlil qilish imkonini berib, strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda keng axborot bazasini yaratadi. Shu jihatdan, hisob siyosatini ishlab chiqishda korxonaning faoliyat sohasi, ishlab chiqarish texnologiyasi va boshqaruv strukturasini inobatga olish zarur.

“Hisob siyosati xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzish uchun foydalanadigan maxsus prinsiplarni, konvensiyalarni, tartib va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi. Hisob siyosati moliyaviy hisobot barcha maqbul BHMSlarni qo‘llanish asosida tuziladigan tarzda tashkil etilishi kerak. Maxsus talablar bo‘lmagan taqdirda moliyaviy hisobot quyidagicha bo‘lishi kerak:”⁸

1. Foydalanuvchilar ehtiyoji uchun ahamiyatli;
2. Shu jihatdan ishonchli bo‘lishi kerak:
 - 2.1. Subyekt faoliyati va moliyaviy holatining barcha natijalarini xolisona ko‘rsatishi;
 - 2.2. Faqat yuridik shakldan iborat bo‘lmay, hodisa va operatsiyalarning iqtisodiy mohiyatini aks ettirishi;
 - 2.3. Betaraf (beg‘araz) bo‘lishi va majburiy bo‘lmasligi;
 - 2.4. Betaraflikka zarar yetkazmagan holda ehtiyotkor bo‘lishi;
 - 2.5. Barcha muhim jihatlarini to‘la (tugallangan) bo‘lishi, ya‘ni subyekt xo‘jalik faoliyatining barcha faktlarini to‘la aks ettirishi lozim;
3. Faoliyati o‘xshash boshqa subyektlar moliyaviy hisoboti bilan taqqoslanadigan;
4. Tushunarli.

Shuningdek, hisob siyosatida byudjetlashtirish, ichki hisobot shakllari va javobgarlik markazlari bo‘yicha hisob yuritish tartiblarini belgilash boshqaruv hisobi tizimining izchilligini ta‘minlaydi. To‘g‘ri shakllantirilgan hisob siyosati orqali korxona rahbariyati operativ nazoratni kuchaytirish, og‘ishlarni aniqlash va resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshqaruv hisobi maqsadlarida hisob siyosatini shakllantirish korxona boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishda muhim metodologik asos hisoblanadi. Hisob siyosati nafaqat moliyaviy hisobot talablarini qondirish, balki ichki boshqaruv ehtiyojlarini ta‘minlash, xarajatlarni rejalashtirish va

⁸ “TASDIQLANGAN” O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining o‘rinbosari E.F. GADOYEV 26.07.1998-y. 17-17/86-son O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti 1-sonli BHMS Hisob siyosati va moliyaviy hisobot [O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 14-avgustda 474-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan] <https://lex.uz/mact/-828581#-3745501>

nazorat qilish, mahsulot tannarxini aniqlash hamda strategik qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ishonchli axborotlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hisob siyosatini boshqaruv hisobi bilan uzviy bog'liq holda tashkil etish korxona resurslaridan oqilona foydalanish va moliyaviy natijalarni yaxshilash imkonini beradi. Shuningdek, boshqaruv hisobi maqsadlariga yo'naltirilgan hisob siyosati orqali byudjetlashtirish, ichki nazorat va javobgarlik markazlari faoliyatini samarali tashkil etish mumkin. Bu esa korxonada operativ nazoratni kuchaytirish, og'ishlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha o'z vaqtida boshqaruv qarorlarini qabul qilishga zamin yaratadi. Umuman olganda, hisob siyosatini ishlab chiqishda korxonaning faoliyat sohasi, ishlab chiqarish texnologiyasi va boshqaruv tuzilmasini inobatga olgan holda tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni qo'llash zamonaviy korxonalar uchun dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Yuqoridan kelib chiqib quyidagi takliflar ilgari surilmoqda:

Birinchidan, korxonalarda hisob siyosati faqat moliyaviy hisobot talablariga emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish ehtiyojlariga ham yo'naltirilgan holda shakllantirilishi hamda xarajatlarni tasniflash, tannarxni hisoblash usullarini tanlash va ichki hisobot shakllarini ishlab chiqish boshqaruv hisobi talablariga mos ravishda belgilanishi;

Ikkinchidan, xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchan turlarga ajratish, javobgarlik markazlari bo'yicha hisob yuritish hamda byudjetlashtirish jarayonlarini hisob siyosatida aniq belgilash orqali xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;

Uchinchidan, faoliyatga asoslangan hisob (ABC costing) kabi ilg'or usullarni hisob siyosatida aks ettirish mahsulot va xizmatlar tannarxini aniqroq aniqlash, yashirin xarajatlarni ochib berish va strategik boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi;

To'rtinchidan, bozor sharoitlari, ishlab chiqarish texnologiyasi va boshqaruv tuzilmasidagi o'zgarishlarni inobatga olgan holda hisob siyosatini davriy ravishda yangilab borish boshqaruv hisobi tizimining moslashuvchanligini ta'minlab, korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi;

Ushbu takliflarni joriy etish orqali korxonalarda boshqaruv hisobi tizimining axborot bazasi mustahkamlanadi, hisob siyosatining boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi amaliy ahamiyati oshadi hamda moliyaviy va boshqaruv hisobining o'zaro integratsiyasi ta'minlanadi. Natijada xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish mexanizmlari takomillashib, mahsulot (ish, xizmat) tannarxini aniq va asosli hisoblash imkoniyati kengayadi. Shuningdek, byudjetlashtirish va ichki nazorat tizimlarining samaradorligi ortib, javobgarlik markazlari faoliyati yanada shaffoflashadi. Eng muhimi, hisob siyosatini muntazam takomillashtirib borish orqali korxona rahbariyatining strategik va operativ boshqaruv qarorlari sifati yaxshilanib,

resurslardan oqilona foydalanish va korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vahobov A., Ibragimov A., Ishonqulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. T.: "Sharq" NMAK, 2005-y. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Page 556
2. B.A.Hasanov va A.A.Xashimovlatning "Boshqaruv hisobi" nomli darslik Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. -260 b. https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_005f76c62d913b5.pdf
3. B.A.Hasanov va A.A.Xashimovlatning "Boshqaruv hisobi" nomli darslik Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. -260 b. 15-bet. https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_005f76c62d913b5.pdf
4. "TASDIQLANGAN" O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining o'rinbosari E.F. GADOYEV 26.07.1998-y. 17-17/86-son O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti 1-sonli BHMS Hisob siyosati va moliyaviy hisobot [O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 14-avgustda 474-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan] <https://lex.uz/mact/-828581#-3745501>
5. Abdullojon Davronov Korxona va tashkilotlarda hisob siyosatini shakllantirish Журнал Scientific progress 2021 <https://cyberleninka.ru/article/n/korxona-va-tashkilotlarda-hisob-siyosatini-shakllantirish>
6. Byudjet tashkilotlari uchun hisob siyosati Norma.uz https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/byudjet_tashkilotlari_uchun_hisob_siesati
7. "TASDIQLANGAN" O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining o'rinbosari E.F. GADOYEV 26.07.1998-y. 17-17/86-son O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti 1-sonli BHMS Hisob siyosati va moliyaviy hisobot [O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 14-avgustda 474-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan] <https://lex.uz/mact/-828581#-3745501>